



UO'K:94 (575.172) «1917»

Gulbaxiram DOSHMURATOVA,
Qoraqalpog' davlat universiteti assistent o'qituvchisi
E-mail: gulbaxiram@gmail.com

NDPI dotsenti, PhD B.Bekniyazov taqrizi asosida

HISTORICAL EVENTS IN KARAKALPAKSTAN IN 1917

Annotation

The article describes the socio-economic and political life of Karakalpakstan in 1917, and also analyzes the nature, content and significance of the historiography of the history of Karakalpakstan in 1917 based on scientific sources.

Key words: History of Karakalpakstan, socio-economic and political situation, historical events.

ИСТОРИЧЕСКИЕ СОБЫТИЯ, ПРОИЗОШЕДШИЕ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ В 1917 ГОДУ

Аннотация

В статье рассказывается социально-экономическая и политическая жизнь Каракалпакстана в 1917 году, а также на основе научных источников проанализирован характер, содержание и значение историографии истории Каракалпакстана 1917 года.

Ключевые слова: История Каракалпакстана, социально-экономическое и политическое положение, исторические события.

1917 YILDA QORAQALPOG'ISTONDA YUZ BERGAN TARIXIY VOQEALAR

Annotatsiya

Maqolada Qoraqalpog'istonning 1917 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti tasvirlangan, shuningdek, 1917 yilgi Qoraqalpog'iston tarixi tarixnavisligining mohiyati, mazmuni va ahamiyati ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qoraqalpog'iston tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol, tarixiy voqealar.

Kirish. Bugungi kunda tarixiy meros, tarixiy xotiraning qayta tiklanishi nafaqat O'zbekiston Respublikasi rahbariyati va tarixchilarning, shu bilan birga keng jamoatchilikning diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. «Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yoq. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga etkaza bilishimiz kerak» -dedi davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoev.

«Mustaqillik yillarida O'zbekiston olimlarining samarali tadqiqotlari natijasida milliy tariximizning ilgari noma'lum bo'lgan sahifalari ochildi, tarixiy o'tmishimizning ko'p jihatlari kashf etildi. Tarixiy haqiqatni tiklash jarayonida zamonaviy yondashuvni talab qiladigan dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ular qatoriga, Qoraqalpog'iston diyorida shakllangan boy mazmunli tarix sahifalarini tiklash rivojlantirish, tarix ilm-faniga chuqur iz qoldirgan tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir» [1].

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, tarixiy ilm-fan rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan birga, 1917 yilda hozirgi Qoraqalpog'iston hududida yuz bergan tarixiy voqealarni o'rganish, Qoraqalpog'iston tarixi tarixshunosligining 1917 yildagi tabiyati, mohiyati va ahamiyatini tahlil qilish, natijalarini umumlashtirish katta ahamiyatga ega.

1917 yildagi voqealar, birinchi jahon urushidan keyingi charchoq va xalqning umidsizligi bilan tavsiflanadi.

Tarixchilar juda ko'p muddat davomida 1917 yilgi voqealarga katta qiziqish bilan qarashadi. Chor Rossiyasining qudratli tashqi ko'rinishi ortida krepostnoylarni ozod qilish orqali rivojlangan va kambag'al dehqonlarning noroziligiga sabab bo'lgan hukmron agrar iqtisodiyot turardi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiylik, ilmiy holislik va obyektivlik tamoyillariga to'la amal qilgan holda,

ilmiy muammoni o'rganish va tahlil qilishda tarixiy-falsafiy, ya'ni analiz va sintez, tizimlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy solishtirish metodlardan foydalanildi. Ushbu usullar tadqiqot mavzusining ilmiy-metodologik asoslarini tashkil etdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarixchi A. Tetushov va yozuvchi B. Cheprunovanning «Qoraqalpog'istondagi puqarolar urushi tarixi to'g'risidagi materiallar va hujjatlar» ikki yil davomida to'plangan bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi fundamental kutubxonasida saqlanmoqda.

1953 yilda rus tarixshunosligida A.Tetyushovning qo'li bilan Petro-Aleksandrovska sovet hokimiyatini o'rnatish talqini paydo bo'ldi: 1917 yil 11 dekabrda bolsheviklar boshchiligidagi eng kambag'al dehqon ishchilar Petro-Aleksandrovska dumasining ijroiya qo'mitasini og'darib tashladilar va o'sha vaqtdan boshlab hokimiyat to'laligicha ishchilar, dehqonlar, askarlar deputatlari, Petro-Aleksandrovska Kengashi qo'lga o'tdi, o'sha paytda butun Amudaryo bo'limida sovet hokimiyatining markazi bo'lgan [2]

«Bolsheviklar guruhi boshchiligidagi, Petro-Aleksandrovska shahridagi ishchilar, inqilobiy askarlar, dengizchilar va shahar kambag'allari, kazaklarni zararsizlantirib, inqilobga qarshi elementlarni yo'q qilib, 1917 yil 11-12 dekabr kunlari Vaqtinchalik hokimiyatning vakillariga qarshi, qurollar bilan kirib keldi» deb yozadi Y. Dosumov [3].

Bir yildan so'ng bu afsonaning davomi chiqdi: «Sovet hokimiyati Shoraxan, Saribiy, Shabbaz, Biy-Bazar, Moynaq yarim orollarida ham o'rnatildi» [4]

Bu tarixiy voqealar o'n yil o'tgach quyidagicha to'liqtirilgan edi: «bolsheviklar boshchiligidagi, askarlar, ishchilar va batraklar tarafidan 1918 yil 1 yanvarda Chimboy

va Nukusda, Sovet hokimiyati o'rnatildi. Shu tariqa, 1918 yil boshida, Karakalpakiyada (Tamdi rayoni va Amudaryo chap sohilidan tashqarida) sotsialistik inqilobi yutib chiqdi» [5]

Bu apsona hozirgi kungacha, kitobdan kitobga, bir tarixdan boshqa tarixga ko'chip yuradi.

Ko'p sonli bo'lmagan sanoat karxonalari qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan "mavsumchilar" ishlar edi. Rus ishchilari bu yerda ayriqcha bo'lib, ular hech qanday inqilobiy g'ayratga ega emas edilar", - deydi Y. Dosumov [6]

1917 yilgi voqealarning haqiqatga yaqin talqini Qoraqalpog'istonning zamonaviy tarixshunosligida paydo bo'ldi. B.A.Qo'shanovning fikriga ko'ra, bolsheviklar va eserlar tarafidan tuzilgan Turkiston Muxtoriyati Sovnarkomi (1917 yil 15-22 noyabr), «Markaziy sovet hokimiyatining agenti» rolini o'ynagan.

A. Qojageldievning so'zlariga ko'ra, askarlar va ishchi deputatlar Soveti Petro-Aleksandrovs shahrini faqat 1918 yilning kuzida qo'lga kiritdi. O'sha paytgacha Petro-Aleksandrovsda harbiy deputatlar Soveti o'z vazifasini bajarib bo'ldi. Ikkala hokimiyat o'sha vaqtdagi asosiy muammolarni hal qilishga harakat qildi: oziq-ovqat inqirozi, ishsizlikni kamaytirish, kuchli qurollangan Junaydxon askarlaridan himoyalash va bosh. [8]

«Qoraqalpog'istonning mahalliy ziyolilari, musulmon vakillar, ziyolilar, Rossiya markazida sodir bo'layotgan harakatlardan xabardor edilar», - deydi M.S. Seytnazarov.

N.Vostrikov, A. Piskunov, J. Atashev, N. Maulenovlarning memuarlari, Q Adinaev, A. Xristoforov, A. Dosnazarov, M. Baljonov, N. Shaydakovlarning ma'ruzalari tahlili asosida, muallif, «1918 yil oxiri - 1918 yilning birinchi yarmida Amudaryo bo'limining siyosiy ahvoli to'rtta hokimiyatning amalga oshishi bilan tavsiflanadi: Amudaryo bo'limi Komissariati, Umumiy xavfsizlik komiteti, siyosiy harbiy deputatlar Soveti va shahar dumas» degan fikrga keladi.

B. Qoshanov «O'zbekistonning yangi tarixida» hozirgi tarixshunoslik yutuqlari to'g'risida quyidagicha aytib o'tadi: «Oktabr inqilobi Qoraqalpog'istonda qarshiliksiz qabul qilindi, buning sababi yuqorida oldingi kolonizatorlar va padsho amaldarlarining turishida bo'lishi mumkin. Petro-Aleksandrovs shahar dumas, bolsheviklarning ish-harakatlarini qo'llamadi. Shunga qaramasdan, Vaqtinchalik boshqaruv organi 1918 yilning oxirigacha turdi. 1917 yil 31 oktabrdan 1918 yilning oktabrigacha, Amudaryo bo'limi komissari lavozimida gidrotexnik V.N.Pamshev ishladi. Bu davrda hokimiyat tarkibida o'zgarishlar deyarli bo'lmadi: Amudaryo bo'limi komissari, Chimboy va Shoraxon uездlari komissarlari, Petro-Aleksandrovs shahar dumas, Umumiy xavfsizlik komiteti o'z ishlarini davom ettir. Deputatlar Soveti shahardan tashqarida hokimiyatni yuzaga chiqara olmadi. Qishloq aholisi hech qanaqa yordam olmagan so'ng o'zlari, Ubaydullo Bawatdinov, Bala Biy va boshqalarning boschiligida harbiy guruhlar tuzdi. Ahvol 1918 yilning ikkinchi yarmidan, tish-tirnog'igacha qurollangan qizil askarlarning kelishi bilan o'zgardi» [9].

1917 yildagi tarixiy voqealarni yodga olishda P. Yusupovning xotiralari katta ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, yangi tariyx «1917 yil 11-12 dekabrda Amudaryo bo'limida sovet hokimiyati o'rnatilishi» haqidagi tezisini bekor qildi. P.Yusupovning 323 sahifali memuarlari, M.Aliakberov, L.Land, K.Muhammadberdiev, R.Rahimovlarning tanqidlariga uchradi.

Vertegovning fikriga ko'ra, xalq ma'rifatida podshoh siyosati quyidagilardan iborat: "kichik amaldarlarni tayorlash uchun rus-tuzem maktablarini ochish, qoraqalpoq tilida maktablar ochishga to'sqinlik qilish, jadid maktablariga qarshi chiqqan qatlamni qo'llab-quvvatlash" [10].

Tarixiy adabiyotlarda Qoraqalpog'iston ziyolilari Q.Awezov, P.Varlamov, A.Dosnazarovlarning yozmalari chop etilgan.

Qoraqalpog'istonning ma'rifiy sohasini o'rganish jarayoni natijasida Y.Dosumov, ular o'rta asrning qoldiqlari va patriarxal-feodal g'oyalari bilan kurashganini ta'kidlaydi.

XX asrning 50-yillari o'rtalariga kelib, Qoraqalpog'istonning "Madaniy inqilobi" tarixi bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish boshlandi. Bu tarixshunoslikda 50 yillar oxiriga kelib yanada rivojlana boshladi.

Bu vaqtga kelib, Markaziy Osiyo va Qozog'iston tarixchilari sovet tarixining muhim mavzulari bo'yicha bir nechta majlislar o'tkazdilar, repressiyaga uchraganlarni oqlash haqida aytib o'tildi.

Qoraqalpog'istonning madaniy turmishini o'rganishning birinchi tajribasi bo'yicha U. Shalekenovning kitobi chop etildi. Girsfeld ham Galkinning fikrlariga qo'shilib, V. Vertegovning ma'lumotlarini bekorga chiqardi. U.Shalekenov Sovet hokimiyatining ma'rifatchilik sohasida bolayotgan choralarni hisobga olib quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: boshqarayotgan partiya ikki to'siqqa yuz buradi, birichidan, qoraqalpoq xalqining ziyoliligi, ikkinchidan diniy vakillar sovet maktablarining keng tarqalishiga qarshi chiqqan. U.Shalekenovning kitobining birinchi bobi revolyuciya qadar voqealar haqida bo'lishiga qaramay, qoraqalpoq xalqining 1917-1940 yillar oralig'idagi madaniy rivojlanishi haqida bayon etilgan [11].

Panabergenovning kitoblarini ko'zdan kechirsak, o'rganilayotgan masala haqida katta ma'lumotga ega bo'lamiz. Ularda 1908 - 1913 yillar oralig'idagi diniy maktablar soni keltirilgan. A.Panabergenov tarix ilmiga juda ko'p ma'lumotlar kiritdi, sovet maktablarining ochilishi, maktab yoshidagi bolalar soni, maktablarda diniy darslar o'qitilayotganligi haqida aytib o'tgan.

Qoraqalpog'istonning revolyuciya qadar madaniyatini Y.Dosumov o'rganib, ikki qarshi yo'nalish bolganligini aytib o'tadi: podshoh tarafdorlari, pomeshiklar, savdogarlar, boylar, ruhoniylar va sotsial-demokratik guruhlar. Podshohlikning maktabga nisbatan siyosati quyidagicha edi: «Eski Muhammad (diniy) maktablar o'z holicha qoldirilsin». 1911 yilda Amudaryo bo'limida 516 ta maktab bo'lib, unda 10901 ta o'quvchi, 1914 yilga kelib maktablar soni 433 taga, o'quvchilar soni esa 4212 taga kamayganini aytib o'tdi. Dosumovning fikriga ko'ra, diniy maktablar mahalliy aholi orasida diniy fanatizmni uyg'otdi.

S. Tatibaevning «kapitalizmdan chetlab, feodalizmdan socializmga o'tish» monografiyasida 1917-1941 yillardagi Qoraqalpog'iston tarixi haqida ko'plab fakt-materiallar mavjud. Muallif, 1920 yilda Turkiston ASSR, Amudaryo viloyati revkomining ma'ruzasiga asosan, mahalliy tartiblarni o'zgartirishning iloji yo'qligini ta'kidlaydi [12].

«Qaraqalpaq ASSR tariyxı ocherkleri» nashrdan chiqqandan so'ng, tarixchilar tasdiqlovchi, madaniy revolyuciya so'rovlarini qo'zg'atuvchi monografiyalarni nashrdan chiqara boshladi. 1974 yili Qoraqalpog'iston tarixi jamoatchiligi ikki jildli «Qaraqalpaqstan ASSR tariyxı»ni nashrdan chiqardi. «Madaniy inqilob», «Ijtimoiy hayot», «Qotin-qizlarning krepostnoylikdan ozod qilish» qismlarida o'rganilayotgan mavzu haqida aytib o'tilgan [13].

Qoraqalpoq xalqining boshqa xalqlar bilan madaniy aloqalari - eng chuqur o'rganilgan mavzulardan biri. M. Qarlibayev, bolsheviklarning to'ntarishi, Qoraqalpog'iston hududidagi diniy maktablar va madrasalar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta tiklagan.

Shuningdek, P.Palwaniyazovning 1925-1950 yillardagi Qoraqalpog'istonning musiqa tarixini o'rganishi diqqatga sazovor.

«Qaraqalpaqstannıń jańa tariyxı»da I. Qosimbetov boshchılıǵıdagi tarixchılar guruhi Qoraqalpog'iston xalqınıng musıqa madaniyatı tarixıdagi yutuqlarını hisobga oladı.

K. Muhammedberdiev Qoraqalpog'istonning kapitalizmdan chetlab o'tish va sotsializmga o'tish masalasiga alohida e'tibor qaratdı.

Xulosa. Qaraqalpog'istondagi umumiy tarix fani rivojlanishi jarayonlari K.Utepovning tadqiqotlarida aks etgan. «O'zbekistonning yangi tarixi»da B.A.Qoshanov zamonaviy

tarixchunoslikning «Amudaryo bo'limida Sovet hukumatini o'rnatish» bo'yicha erishgan yutuqlarini quyidagicha umumlashtiradi: «Rossiyadagi oktabr to'ntarishi Qoraqalpog'istonda ortiqchaliksiz qabul qilindi, chunki eski mustamlakachilar va podshoh hukumati amaldorlari hokimiyatda o'tirgan edi. Petro-Aleksandrovsk shahar duması bolsheviklar harakatini qo'llab-quvvatlamadi. Shunday bo'lsa-da, 1918 yilning oxirigacha o'z vazifasini bajardi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистоннинг янги тарихи»ни тайёрлаш ва нашр этиш тўғрисидаги Қарори. Т.: 1996 й. 16 декабр. «Халқ сўзи» газетаси, 17-декабрь 1996-йил. №267
2. Тетюшев А. Великая Октябрьская революция в Каракалпакии // Советская Каракалпакия, 1953, 6 ноября. №134
3. Досумов Я. М. Каракалпақстанда Совет властының орнатылыуы.-Нөкис: ККМБ, 1957. -С.28.
4. Досумов Я.М. Победа великой Октябрьской социалистической революции в Каракалпакии. -Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1958. - С.62.
5. Досумов Я.М. Становление партийной организации Каракалпакии // Советская Каракалпакия, 1969, 1 апреля. № 37
6. Досумов Я.М. Очерки истории Каракалпакской АССР. 1917-1927. Ташкент, 1960. – С.84.
7. Кошанов Б.А. Большевики в Туркестане. 1917-1922 гг. доктрина и реальность. -Автореферат дисс...доктора ист. наук. Москва, 1994. - С.28.
8. Кожажелдиев А. У. История города Турткуля: 1873-1941 гг. Автореф. дисс...канд.ист. наук. Нукус. 1996. -С.16.
9. Кошанов Б.А. Қорақалпоғистон шиддатли ўзгаришлар даврида (1917-1924) // Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарк, 2000. -С.302-303
10. Аvezов К., Варламов П. Кара-Калпақстан в десятилетие Казахстана. Алма-Ата, 1930; Досназаров Десятилетие Каракалпакской АССР // Революционный Восток, Москва. 1934.-N 6.-С.173-180;
11. Шалекенов У.Х. Очерки по истории культуры советской Кара-калпакии (1917-1940 гг.)). Нукус: Каракалпакгосиздат, 1960.
12. Татыбаев С.У. Исторический опыт построения социализма в Каракалпакии (1917-1941 гг.).-Нукус: Каракалпакия. 1971.- С.39.
13. Каракалпакия в период победы социализма и коммунистического строительства. - Ташкент, 1969;